

mamlakat iqtisodiy farovonligi va barqarorligini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi.

Xulosa qilib aytganda tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini ta'minlashning nazariy asoslarini tadqiq qilish natijasida, tijorat banklarining moliyaviy barqarorligi orqali bank tizimi barqarorligiga, bank tizimi barqarorligi esa mamlakat iqtisodiy barqarorligiga xizmat qilishi nuqtai nazaridan qarash bank tizimi rivojlanishi va barqaror faoliyat yuritishiga imkon beradi. Bundan tashqari, banklarning moliyaviy barqarorligi investitsiya faolligini oshirishga, tadbirkorlikni rivojlantirishga va umuman iqtisodiyotning o'sishiga yordam beradi. Shu sababli, tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini ta'minlashni rivojlantirish mamlakatning iqtisodiy farovonligi va barqarorligini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Shuningdek tijorat banklari boshqa moliya institutlari yoki banklari bilan hamkorlik qilish orqali raqobatbardoshlik va moliyaviy barqarorlikni oshirishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli farmoni.

2. I.G.Sadikov. Iqtisodiyotni transformatsiyalash jarayonida tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini ta'minlash yo'llari. Avtoreferat. Toshkent-2025y. 5-15 betlar.

3. M.Q.Abdusamatov. O'zbekiston iqtisodiyotida tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini mustahkamlash. "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali. 2025-yil, fevral. № 2-son. 332-337 betlar.

4. Уразов С. А. Устойчивость банковской системы: теоретические и методологические аспекты // Банковское дело. – Москва, 2006.

5. Billi R.M., Vredin A. Monetary Policy and Financial Stability – A simple story. Sveriges Riksbank Economic Review, 2014, vol. 2, pp. 7–22.

INVESTITSIYA PORTFELINI SHAKLLANTIRISHDA KORXONALARNING MOLIYAVIY HISOBOTLARI ASOSIDA FUNDAMENTAL TAHLIL O'TKAZISH

Sindarov Fazliddin Kaxramonovich

*TDIU huzuridagi "O'zbekiston iqtisodiyotini
rivojlantirishning ilmiy asoslari va muammolari"
ilmiy-tadqiqot markazi mustaqil tadqiqotchisi*

Kapital bozoridan yuqori samarali investitsiya portfelini shakllantirishda rentabelligi yuqori kompaniyalarning qimmatli qog'ozlarini saralab olish muhim ahamiyatga ega. Bunda fundamental tahlilning tarkibiy qismi hisoblangan moliyaviy tahlil o'tkazib rentabelligi yuqori kompaniyalarni tanlab olish mumkin.

Kompaniyaning kelajakdagi rivojlanish istiqbollarini tahlil qilish biznes tahlilining asosiy maqsadlaridan biridir. Biroq, bu jarayon subyektiv va murakkab

bo'lib, uni samarali amalga oshirish fanlararo yondashuvni talab qiladi. Bunday yondashuv biznes muhitining tahlili va strategik tahlilni o'z ichiga oladi.

Kompaniya biznes muhitini tahlil qilish kompaniyaning iqtisodiy hamda sanoat sharoitlarini aniqlash va baholashga qaratilgan bo'lib, u mahsulot bozori, mehnat bozori va kapital bozorlarini iqtisodiy hamda huquqiy tartibga solish muhitida o'rganishni o'z ichiga oladi.

Biznes strategiyasini tahlil qilish esa kompaniyaning raqobatbardosh ustunliklari va zaif tomonlarini aniqlash, shuningdek, mavjud imkoniyatlar va potensial tahdidlarni baholash jarayonidir.

Biznes muhiti va strategik tahlil quyidagi ikkita asosiy tarkibiy qismdan iborat:

1. Sanoat tahlili

2. Strategiya tahlili

Sanoat tahlili dastlabki bosqich sifatida qaraladi, chunki kompaniyaning rentabelligi sanoatning umumiy tuzilishi va istiqbollari bilan uzviy bog'liq. Sanoat tahlili kompaniyaning bozor sharoitidagi real va potensial raqobat darajasini baholash hamda sanoatning uzoq muddatli rivojlanish istiqbollarini o'rganish uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Strategiya tahlili kompaniyaning biznes qarorlarini va uning raqobat ustunligini shakllantirish bo'yicha kelajakda erishilishi mumkin bo'lgan muvaffaqiyatli natijalarni baholashni o'z ichiga oladi. Ushbu jarayon kompaniyaning tashqi biznes muhitiga qanday strategik javob berishini va bu qarorlarning uzoq muddatli muvaffaqiyat hamda o'sishga ta'sirini o'rganishni talab qiladi.

Bundan tashqari, strategiya tahlili kompaniyaning mahsulot portfeli, narx belgilash strategiyasi va xarajatlar tuzilishini chuqur tahlil qilish orqali uning raqobatbardosh strategiyasini baholashni ham o'z ichiga oladi.


Biznes muhiti va strategiyasini tahlil qilish uchun iqtisodiy va sanoat omillarini chuqur tushunish talab etiladi. Shuningdek, strategik menejment, biznes siyosati, ishlab chiqarish jarayonlari, logistika boshqaruvi, marketing va menejerlar uchun iqtisodiyot (managerial economics) kabi sohalarda ham yetarlicha bilim va tahliliy yondashuv zarur.

Kompaniya biznes tahlili o'zaro bog'liq bo'lgan bir nechta asosiy jarayonlarni o'z ichiga oladi. 1-rasmda ushbu jarayonlar biznes tahlilining muhim yo'nalishlaridan biri – kompaniya qiymatini baholash jarayonida qanday qo'llanilishi tasvirlangan.

Kompaniya qiymati yoki ichki qiymatni aniqlash uchun maxsus baholash modeli ishlatiladi. Ushbu modelga kiruvchi asosiy ma'lumotlar – kelajakdagi daromadlar (prognoz qilingan pul oqimlari yoki foyda) va kapital qiymati hisoblanadi.

Kelajakdagi daromadlarni bashorat qilish jarayoni *prospektiv tahlil* deb ataladi. Bu jarayonning aniqligi kompaniyaning biznes istiqbollari va moliyaviy holatini to'g'ri baholashga bog'liq. Biznes muhiti va biznes strategiyasi tahlili kompaniyaning kelajakdagi rivojlanish imkoniyatlarini baholashga yordam

beradi, moliyaviy tahlil esa kompaniyaning hozirgi moliyaviy holatini moliyaviy hisobotlar asosida aniqlaydi.



1-rasm. Kompaniya biznes tahlili jarayoning tarkibiy qismlari¹⁰⁴

Moliyaviy tahlilning ishonchliligi esa moliyaviy hisobotlarning aniqligi va iqtisodiy mazmuniga bog'liq bo'lib, buning uchun buxgalteriya ma'lumotlari asosida tahlili o'tkaziladi.

Moliyaviy hisobot tahlili biznes tahlilining barcha asosiy tarkibiy qismlarini – buxgalteriya balansini tahlili, moliyaviy tahlil va prospektiv tahlil jarayonlarini o'z ichiga oladi.

Buxgalteriya balansini tahlili kompaniyaning moliyaviy hisobotlari iqtisodiy haqiqatni qanchalik aniq aks ettirishini baholaydi. Buxgalteriya balansini tahlil qilishdan asosiy maqsad kapital bozorida samarali investitsiya portfelini shakllantirishda qimmatli qog'ozlari yuqori o'sishi mumkin bo'lgan kompaniyalarni tanlab olishdir.

Moliyaviy tahlil kompaniyaning moliyaviy hisobotlaridan foydalanib, uning moliyaviy holati va natijalarini baholash, kelajakdagi moliyaviy samaradorligini prognoz qilish jarayonidir. Bu tahlil kompaniyaning resurslari, rentabelligi, moliyaviy barqarorligi va kelajakdagi daromad olish imkoniyatlarini baholashni o'z ichiga oladi.

Moliyaviy tahlil uch asosiy yo'nalishdan iborat:

1. **Rentabellik tahlili** – Kompaniyaning investitsiyalardan qaytimi, foyda manbalari va barqarorligini baholash.

2. **Pul oqimlari tahlili** – Kompaniya mablag'larni qanday jalb qilayotgani va sarflayotganini aniqlash.

3. **Risk tahlili** – Kompaniyaning majburiyatlarini bajarish qobiliyatini, likvidligi va moliyaviy barqarorligini tahlil qilish.

¹⁰⁴ K. R. Subramanyam "Financial Statement Analysis", 10th Edition McGraw-Hill Education, New York, Copyright © 2014

Moliyaviy tahlil investitsion va kredit qarorlarini qabul qilish uchun muhim ahamiyatga ega.

Prospektiv tahlili kompaniyaning kelajakdagi daromadlari va pul oqimlarini prognoz qilish jarayonidir. Ushbu tahlil kompaniyaning buxgalteriya balansi va moliyaviy natijalari hamda biznes muhiti va strategiyasini tahlil qilishga asoslanadi. Prospektiv tahlilining natijasi kompaniya qiymatini baholashda muhim ahamiyatga ega.

Kompaniya qiymatini baholash ko'plab biznes tahlillarining asosiy maqsadidir. Bu kelajakdagi kutilayotgan daromadlarni kompaniya qiymatini aniqlash uchun hisoblash jarayonidir. Kompaniya qiymatini aniqlash uchun turli xil baholash modellaridan foydalanish mumkin. Ko'pgina hollarda baholash modellari kelajakdagi moliyaviy natijalar prognoziga tayanadi.

Investitsiya portfelini shakllantirish jarayonida kompaniyalarning moliyaviy holatini fundamental tahlil o'tkazish orqali baholashda moliyaviy koeffitsientlardan keng foydalaniladi.

1-jadval

Fundamental tahlilda qo'llaniladigan moliyaviy ko'rsatkichlar¹⁰⁵

Rentabellik ko'rsatkichlari			
1	Yalpi foyda marjasi	Yalpi foyda/Jami daromad	Gross Margin
2	Operatsion daromad marjasi	Opratsion daromad/Jami daromad	Operating Margin
3	EBIT marjasi	EBIT/Jami daromad	EBIT Margin
4	Sof foyda marjasi	Sof foyda/Jami daromad	Net Profit Margin
5	Aktivlar rentabelligi koef – ROA	Sof foyda/Jami aktivlar	Return on Assets
6	Xususiy kapital rentabelligi koef – ROE	Sof foyda/Xususiy kapital	Return on Equity
7	Investitsiya qaytimi – ROI	Sof foyda/Investitsiya qiymati (Jami daromad-Investitsiya qiymati) / Investitsiya qiymati	Return on Investment
8	Investitsiya qilingan kapital rentabelligi – ROIC	Soliqdan keyingi operatsion foyda (NOPAT)/ Investitsiya qilingan kapital	Return on Invested Capital
Likvidlik ko'rsatkichlari			
1	Joriy likvidlilik koeffitsienti	Joriy aktivlarni/Joriy majburiyatlar	Current ratio
2	Tezkor likvidlik	(Joriy aktivlar – Zaxiralar) / Joriy majburiyatlar	Quick ratio
3	Naqd pul koeffitsienti	Kassadagi mavjud pul mablag'lari / Joriy majburiyatlar	Cash ratio
Moliyaviy barqarorlik (Leverage) ko'rsatkichlari			
1	Qarzning xususiy kapitalga nisbati	Umumiy qarz/Xususiy kapital	Debt-to-Equity Ratio
2	Uzoq muddatli qarzning xususiy kapitalga nisbati	Uzoq muddatli qarz/Xususiy kapital	Long Debt-to-Equity Ratio
3	Qarz nisbati	Jami qarz / Jami aktivlar	Debt Ratio
4	Kapital ulushi	Jami kapital / Jami aktivlar	Equity Ratio
5	Foiz to'lovlarini qoplash koeffitsienti	EBIT / Foiz xarajatlari EBITDA / Foiz xarajatlari	Interest Coverage Ratio

¹⁰⁵ Jonathan Berk, Peter Demarzo "Corporate Finance", 6th, Pearson, Global Editon, 2024, Eugene F. Brigham, Joel F. Houston "Fundamentals of Financial Management", 15th, Cengage, 2019

6	Moliyaviy leverajlilik koeffitsiyenti	Jami aktivlar / Jami kapital	Financial Leverage Ratio
Kompaniya qiymatini baholash ko'rsatgichlari			
1	Har bir aksiya uchun to'g'ri keluvchi sof foyda – EPS	Sof foyda/Aksiyalar soni (Sof foyda-Imtizozli askiyalar uchun taqsimlangan jami dividend)/Aksiyalar soni	Earnings Per Share
2	Narx daromad nisbati – P/E	Aksiyalarning bozordagi narxi/EPS	Price-to-Earnings Ratio
3	Narx/Balans qiymati nisbati – P/B	Kompaniya kapitalizatsiyasi / Kompaniyaning balans qiymati	Price-to-Book Ratio
4	Narx/Jami daromadi nisbati – P/S	Kompaniya kapitalizatsiyasi / Jami daromad	Price-to-Sales Ratio
5	Dividend rentabelligi	Har aksiya uchun dividend/Aksiyaning bozordagi narxi	Dividend Yield
6	EV/EBITDA – Korporativ qiymat/EBITDA	Korporativ qiymat (EV) / EBITDA	Enterprise Value-to-EBITDA
7	EV/EBIT – Korporativ qiymati/EBIT	Korporativ qiymat EV/EBIT	Enterprise Value-to-EBIT
8	EV/Jami daromad	Korporativ qiymat EV/Jami daromad	EV/Sales

Yuqoridagi 1-jadvalda kompaniyalarning moliyaviy holatini fundamental tahlil qilishda eng ko'p qo'llaniladigan koeffitsientlar va ko'rsatgichlar berilgan bo'lib, ularning natijalari asosida kompaniyalarning moliyaviy holati haqida yetarlicha tassavurga ega bo'lish mumkin. Kompaniyaning moliyaviy holatini moliyaviy koeffitsientlar va ko'rsatgichlar orqali tahlil qilishdan 2 ta maqsad ko'zlanadi.

1. Turli xil kompaniyalar moliyaviy holatini bir-biri bilan solishtirish orqali moliyaviy jihatdan barqaror kompaniyani aniqlash

2. Bitta kompaniyani bir necha yillik moliyaviy hisobotlarini tahlil qilgan holda yillar davomida bu kompaniyaning moliyaviy holari qanday tendensiya asosida o'zgarayotganligini baholash.

Umuman olganda, investitsiya portfelini shakllantirilayotganda moliyaviy hisobotlarni fundamental tahlil qilish asosida yuqori rentabellik va barqarorlikga ega kompaniyalarning qimmatli qog'ozlari tanlanadi, lekin moliyaviy hisobotlarni tahlil qilish natijasida olingan ma'lumotlar kompaniyaning kelajakdagi rentabelligini to'liq aks ettirmatdi, chunki natijalar tarixiy ma'lumotlarga asoslanadi. Shunday bo'lsa-da, portfel shakllantirishda moliyaviy tahlil fundamental tahlilning ajralmas qismi hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. K. R. Subramanyam "Financial Statement Analysis", 10th Edition McGraw-Hill Education, New York, 2014

2. Jonathan Berk, Peter Demarzo "Corporate Finance", 6th, Pearson, Global Editon, 2024,

3. Eugene F. Brigham, Joel F. Houston "Fundamentals of Financial Management", 15th, Cengage, 2019

4. <https://new.openinfo.uz/en/>

5. <https://uzse.uz/>

6. <https://macrotrends.net/>